



6-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNING BOLALAR PSIXOLOGIK JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

*Rasulxo'jayeva Madina Ahmadjonovna,
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası dotsenti.
Madaminova Shohsanam Odiljon qizi,
Qo'qon universiteti 1-kurs magistranti.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning bolalardagi psixologik jarayonlarni shakllantirishdagi ahamiyati soha tadqiqotchilari ilmiy fikrlari asosida yoritib berilgan. Har bir rivojlantiruvchi markazlarning bola psixikasiga ta'siri va maktab ta'limiga tayyorlashdagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: MTT, tayyorlov guruh, tarbiyachi, tarbiyachi-pedagog, "Ilk qadam", davlat dasturi, hissiy rivojlanish, rivojlantiruvchi markazlar, variativ dastur.

Аннотация: В данной статье на основе научных мнений исследователей-исследователей подчеркивается значение центров развития в формировании психологических процессов у детей при подготовке детей 6-7 лет к школьному обучению. Обсуждается влияние каждого центра развития на психику ребенка и его роль в подготовке к школьному обучению.

Ключевые слова: подготовительная группа, воспитатель, воспитатель-педагог, «Первый шаг», государственная программа, эмоциональное развитие, центры развития, вариативная программа.

Abstract: This article, based on the scientific opinions of researchers, emphasizes the importance of development centers in the formation of psychological processes in children when preparing children 6-7 years old for schooling. The influence of each developmental center on the child's psyche and its role in preparing for school are discussed.

Key words: preparatory group, educator, educator-teacher, "First Step", state program, emotional development, development centers, variable program.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana



ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman”.¹ Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimga, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, fikrlarini mustaqil va erkin ifodalay olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridandir.

Aynan shuni e’tiborga olgan holda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida tarbiyalanuvchilarni maktab ta’limiga tayyorlash sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmogda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarorining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning “Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish” deb nomlangan paragrafida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqish va maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishini va shu bilan birga bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlangan.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta’lim tizimini o‘zgartirish, uni bugungi kun talablari asosida amaliy choralarni ko‘rish maqsadida bir qator mazmunli ishlar izchil amalga oshirib kelinmogda. Ta’lim sohasida keng joriy qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida: **“Maktabgacha ta’lim va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir”**², - deyilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risi”dagi PQ-4312-sonli qarorida ham maktabgacha ta’lim

¹ Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.

² O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020., 24 sentabr, 202 (7704)-son.



muassasasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish³ zarurligi ko'zda tutilgan.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, u yerda beriladigan ta'lim-tarbiyani to'liq o'zlashtira olishlariga erishish MTT tarbiyachilari asosiy faoliyatlarining bir qismidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning vazifalaridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiylar tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodga har tomonlama ta'lim-tarbiya berish maqsadida psixolog olimlardan M.Davletshin, B.Karimova, Z.Nishonova, N.Safayev, E.G'oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o'rganilgan⁴.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich bir yillik tayyorlash guruhlarida bola portfoliosini yaratish orqali bolani maktab ta'limiga tayyorlash va o'sib kelayotgan yosh avlod bilimli va yetuk malakaga egaligini ta'minlaydi. Respublikamizda bu vazifalarni hal qilish borasida bir qator ilmiy-tadqiqot, o'quv-pedagogik, uslubiy va dasturiy ishlar amalga oshirilgan.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan, bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan, bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntaeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: "Maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik"

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risi"da gi PQ-4312-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018-y.

⁴ Uskenbaev D "Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini o'rganish va uni rivojlantirishning psixologik usullari" avtoreferat



va “Maxsus tayyorgarlik” tarzida ko‘rib chiqiladi.⁵ Nozim Burgul ta’kidlaganidek, maktabgacha tarbiya davri barcha ta’lim olimlari katta ahamiyat beradigan jarayondir. Biroq bu jarayonning maqsadini amalga oshirish uchun yaxshi rejalashtirilgan ta’lim dasturlari kerak. Maktabgacha ta’lim davri **bolalar bog‘chasi, bolalar bog‘chasi va qabulxona ta’lim** faoliyatini ta’minlaydi. Ta’lim texnologiyalarining har yili o‘zgarib borishi tufayli bu sohadagi o‘quv faoliyatida ijobiy farqlar ko‘rinmoqda. Boshqa tomondan, bugungi axborot jamiyatida ta’limni jadallashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish uchun ba’zi talablar mavjud.⁶

Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi yangi emas va bu ilmiy adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Zamonaviy hayotning tarbiya va ta’limni tashkil etishning o‘ta yuqori talablari bizni o‘qitish uslublarini hayot talablariga moslashtirishga qaratilgan yangi, yanada samarali psixologik va pedagogik yondashuvlarni izlashga majbur qiladi. Shu ma’noda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda o‘qishga tayyorligi muammosi alohida ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida bolaning o‘qishga tayyorligi mezonlari uning aqliy rivojlanish darajasi ekanligiga ishonishgan. L.S. Vigotskiy birinchilardan bo‘lib, maktabda o‘qishga tayyorgarlik g‘oyalarning miqdoriy zahirasi emas, balki bilim jarayonlarining rivojlanish darajasida bo‘ladi degan fikrni shakllantirdi.

O‘qish qobiliyatini shakllantiradigan fazilatlar majmuasi sifatida maktabda o‘qishga tayyorlik konsepsiyasini A.V.Zaporojets, A.N. Leontev, V.S. Muxina, A.A. Lyublinskayalar ishlab chiqqan.⁷

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi. 2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.⁸

⁵ Qurbonova A.D. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi. Darslik. “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent, 2020- yil.

⁶ Nazim Burgul, Mustafa Ya‘gan. The importance and the roles of information technologies in preschool education. Procedia - Social and Behavioral Sciences. Volume 1, Issue 1, 2009, Page 2889

⁷ <https://azkurs.org/1-mavzu-maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-maktab-ta-limiga-tayyorl.html>

⁸ [file:///C:/Users/ADMIN/Downloads/maktabgacha-ta-lim-tashkilotida-bolalarni-maktab-ta-limiga-tayyorlashda-rivojlantiruvchi-muhitning-ahamiyati%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/ADMIN/Downloads/maktabgacha-ta-lim-tashkilotida-bolalarni-maktab-ta-limiga-tayyorlashda-rivojlantiruvchi-muhitning-ahamiyati%20(1).pdf)



Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan o'tonalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)
3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)
4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)
5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

Har-bir markazlardagi faoliyat bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik jarayonlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi.

Fikrlash. Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib, so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig'ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi.

Tasavvur. Avvalo bola ongida yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi.

Nutq. Bolaning so'z boyligi ortadi, kerakli sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot



qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo‘ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So‘z boyligi taxminan 3000 ta so‘zgacha boyib boradi.

Shaxs rivojlanishi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo‘lib hisoblangan o‘yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to‘la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o‘z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o‘z o‘rnini egallash istagi yuzaga keladi.

O‘z “Men”ini anglash. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o‘zgarish bo‘lib “harakatlar ichki rejasi”ning paydo bo‘lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko‘rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo‘ysundirilishi hisoblanadi. “Men qilishim kerak”, “Men qila olaman” motivlarining anglanishi “Men xohlayman” motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

Bola o‘z diqqatini muayyan ob‘ektga yo‘naltirish, to‘plash, taqsimlash bo‘yicha ma‘lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g‘aroyib, kishini taajjubga soladigan ma‘lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, endi o‘z xohish-irodasi bilan zarur ma‘lumotlar to‘plashga, o‘z oldiga aniq maqsad va vazifa qo‘yishga harakat qiladi.⁹

Tadqiqotchi L.Abidova kuzatishlari asosida quyidagi fikrlarni bildirdi: “Bu yoshdagi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini o‘rganishda quyidagi psixologik-pedagogik nazorat ishlarini olib borish mumkin:

1. Bolani qurshab turgan tashqi muhitga munosabati, bilimlar zahirasi.
2. Maktabga bo‘lgan munosabati va rivojlanganlik darajasi.
3. Mustaqil fikrlashi va nutqining rivojlanganlik darajasi.
4. Emotsional – obrazli tasavvurning rivojlanganlik darajasi.
5. Qo‘l harakati motorikasining rivojlanganlik darajasi¹⁰

⁹ file:///C:/Users/User.AD.020/Downloads/6-7-yoshli-bolalarni-maktab-ta-limiga-tayyorshining-axamiyati.pdf

¹⁰ “Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatlari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2015.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabga tayyorgarlik bolaning hissiy boy hayotiy faoliyatini tashkil etishdan iborat. Bu jarayonning uyda, yoki makabgacha ta'lim muassasasida kechishidan qat'iy nazar, bolaning kelajakdagi rivojiga asos bo'ladigan ushbu noyob davrni uning maktabgacha bolalik pallasidagi qiziqish va ehtiyojlarini qondiradigan yorqin, unutilmas voqea va ishlar bilan boyitib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kuzatuvlar, olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

➤ Har bir bolaga komil shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonish.

➤ Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bola o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.

➤ Tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmaslik, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni o'quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

➤ Ta'limda "muvaffaqiyat muhitini" tashkil etish, bolaga o'qitishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.

➤ MTTlar o'rtasida o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish bilan kasbiy kompetensiyani oshirish.

Shuni qayd qilish kerakki, kichik yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ta'limning samarali usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Расулхожаева, М. А. (2012). Роль воспитателей в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста посредством знакомства с животным миром. Молодой ученый, (7), 314-316.
2. Расулходжаева, М. А. (2022). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.
3. Rasulkhujaeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. Eastern European Scientific Journal, (1)Asqarova D.Q. Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti, T.: 2020. 338 b.



4. Qurbonova A.D. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. Darslik. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent, 2020- yil.
5. Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatlari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2015.
6. Parpiyev Odil Olimovich. (2023). MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 876–881. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.748>
7. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>
8. Календарова З.К. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ISBN 978-955-3605-86-4 © Sp. z o. o. "CAN", 2023

© Authors, 2023

FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS
INTERDISCIPLINARY

SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference
(13 December 2023). Part 24 – 234p. <https---interonconf.org-index.php-ity-article-view-10125-8553>